

“KO‘MAK” XORIJDA CHIQQAN BIRINCHI O‘ZBEKLAR NASHRI

Dilnoza Umarova

O‘zJOKU 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *O‘zbekiston jurnalistikasi tarixini Turkiston hududida chiqarilgan “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi bilan boshlaymiz. Taqdir taqazosi bilan o‘zbeklar tarafidan xorijda chiqarilgan bir qator matbuot nashrlari ham borki, ularni ham milliy jurnalistikamizning bir merosi deyishga haqlimiz. Taassufki bu nashrlar bugungi kungacha kam tadqiq etilgan. Ushbu maqola doirasida Germaniyada 1923-yilda o‘zbek talaba yoshlari tarafidan chiqarilgan “Ko‘mak” jurnalini xorijdagi ilk o‘zbek matbuot nashri sifatida o‘rganishni niyat qildik.*

Kalit so‘zlar: *“Ko‘mak”, Germaniyadagi talaba yoshlar, Fitrat, jadidlar, Turkiston, Buxoro Xalq Jumhuriyati.*

O‘zbek yoshlari 1910-yillar oxiriga borib xorijga ta‘lim olish uchun keta boshladi. Tariximizda bizga eng yaxshi tanish figura – Fitrat Istanbulda ta‘lim olgan birinchi o‘zbek talabalaridan edi. O‘sha yillarda hozirgi O‘zbekiston hududida mavjud davlatlar orasidan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi peshqadam bo‘ldi. Adib Xolid kitobida yoshlarning xorijdagi o‘qishiga to‘xtalib “Buxoro hukumati zamonaviy texnik ta‘lim olish uchun talabalarni chet elda o‘qitishni boshladi. Bu fakt ularni zamonaviy tahsil olish uchun o‘z o‘g‘il-qizlarini xorijga jo‘natayotgan modernizatsiyalashayotgan millatlar (Usmonlilar, Yaponiya, Misr, Eron, Rossiya) qatoriga qo‘shdi. Talabalarni o‘qitish uchun tanlangan mamlakatlar ro‘yxati e‘tiborli bo‘lib, ro‘yxatning birinchisida Turkiya turibdi, buning qisman sababi yosh buxoroliklarning o‘zi ham o‘sha yerda tahsil olganidir”,– deb yozadi¹. Birinchi “qaldirg‘ochlar” sanoqli bo‘lgan, ammo keying yillarda ularning “uchish” chegarasi ham, soni ham ancha kengaydi. Fitrat va boshqa millat oydinlari boshchiligida 1920-yillardan keyin yuzdan ortiq o‘zbek yoshlari endi nafaqat Rossiya va Turkiya, balki Yevropa davlatlariga ham ilm istab yo‘lga chiqdilar. Hatto Yevropadagi taraqqiyotni ko‘rgach, biz bahs etayotgan “Ko‘mak” jurnaliga “Bilim Ovrupodadir” deb shior qo‘ydilar.

Jurnal nega “Ko‘mak” deb atalgan va uni chiqarishdan maqsad nima edi? Jadidlar xalq maorifini taraqqiyot kafolati deb ko‘rganlar. Biroq aholiga oliy ta‘lim beruvchi bilim dargohlari 1918-yilga kelibgina ochildi. A.V.Popov rahbarligidagi Turkiston davlat universiteti o‘zining yevropalik kadrlari bilan faqatgina xalqning yevropalik qismigagina ta‘lim bergan. Toshkentning Eski shahar qismida 1918-yil Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan ochilgan Turkiston xalq dorilfununi esa ikki yil o‘tib yopilib ketdi. Aholi Turkiston davlat universitetida o‘qish uchun o‘rta bosqich ta‘lim yurtida o‘qishi kerak edi, ammo u ham mavjud emasdi.

¹ Xolid A., O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. Toshkent: “Akademnashr”, 2022.–424 b.–B.135.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘lkada ta’limni tashkil etish va boshqarishda O‘zbek bilim hay’ati muhim tashkilot hisoblanar edi. Biroq uning faoliyatiga sovet hukumati ma’murlari tomonidan ko‘plab sun’iy to‘siqlar qo‘yilgan edi.² O‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, Sho‘rolar hukumati Turkistonni ma’rifatsizlik asoratida ushlab turmoqchi edi. Bunday sharoitda O‘zbek bilim hay’ati musulmon abituriyentlarni xorijga o‘qish uchun yuborishni eng yaxshi yechim sifatida ko‘rdi. Chetga tahsil uchun ketuvchi talabalardan komissiya tuzilib ular ichidan Sayyid Alixo‘jani boshliq qilib 1922-yilda “Ko‘mak” nomli uyushma tuzilgan. Germaniya, Ozarbayjin va Rossiya oliy o‘quv yurtlari uyushma tomonidan talabalar yuboriladigan davlat oliygohlari etib tanlangan. Uyushmaga Fitrat va Cho‘lpon g‘oyaviy jihatdan rahbarlik qilishgan. Talabalar Fitrat va Fayzulla Xo‘jayev ajratgan Buxoro Xalq Respublikasi sarmoyasi, aholining ma’rifatga xayrixoh qismidan to‘plangan yig‘imlar va ayrim ota-onalarning pullari evaziga xorijga jo‘natiladi. Xorijga borib joylashgan yoshlar o‘z jurnallariga “Ko‘mak” nomini berganlari shu uyushmaga tegishli ekanlarini bildiradi. Germaniyada 1922/23-yillarda jami 58 nafar, 11 nafari Turkistondan, 47 nafari Buxorodan talabalar o‘qiyotgan edi.

“Ko‘mak” jurnali 11-sentyabr 1923-yil Berlinda o‘zbek talabalari tomonidan nashr etilgan. Ushbu jurnalni bizgacha yetib kelgan va ma’lum bo‘lgan eng birinchi xorijdagi o‘zbek nashri sifatida ko‘rish uchun bir nechta sabablar mavjud. Birinchidan, noshirlik va matbuot sohasi egalaridan chetda yashab ijod etganlar faoliyatini o‘rgangan tadqiqotchilar ularning xorijdagi matbuotda chiqishlarini yoki u yerdan turib Vatandagi nashrlarda bosilishlarini aniqlaganlar. Ammo ularning mustaqil bir nashr yaratganlari haqida biror ma’lumot yo‘q. Faqat “Ko‘mak” uyushmasi orqali Ozarbayjonning turli oquv dargohlariga yuborilgan talabalar tomonidan har o‘n besh kunda “Yosh qalam” nomli devoriy gazeta chiqargani aytiladi. (B.Irzayev, 2022) Ikkinchidan, o‘zbek ziyolilari xorijda nashr chiqarish tugul, umrguzaronlik qilishga ham arang mablag‘ topishgan. “Ko‘mak” jurnalining ham bor-yo‘q bitta soni chiqqan, keyingisiga pul topilmay to‘xtab qolgan. Sovetlar hukmronligi o‘rnatilgach Turkiston va O‘zbekistondan tashqari Ittifoq hududida o‘zbeklar nashrlari chiqqan bo‘lsa ham biz ularni mustaqil nashr sifatida ko‘ra olmaymiz.

Jurnal, umuman matbuot nashri chiqarish ko‘nikmasi O‘zbek bilim hay’ati qoshidagi o‘rta, oliy maktablarda o‘quvchi o‘zbek yoshlarining “Adabiyot to‘garagi” tomonidan “Armug‘on” nomli chiqargan jurnali tufayli shakllangan deyish o‘rinli. Ushbu jurnalning chiqishida faol ishtirok etgan yoshlar xorijga ketgach u yerda ham ushbu faoliyatni davom ettirmoqchi bo‘lgan ko‘rinadilar.

² Irzayev B. O‘zbek yoshlari va xorijiy ta’lim. Toshkent, Akadennashr, 2018.–B. 10.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Ko‘mak” jurnalining yagona nishona soni 18 ta materialni qamrab olgan. Shundan 9 tasi she‘rlar. Jadidshunos olim B.Irzayev eski o‘zbek tilidagi mazkur materiallarni to‘liq tabdil holida kitobga kiritgan.³ Ilmiy, adabiy, ijtimoiy “Ko‘mak” jugi (jurnali) ijodiy jamoasi mas‘ul muharrir Sayyid Alixo‘jadan tashqari asosan yana bir kishi– Ahmad Shukuriydangina iborat. Bu ikki talaba Turkistonlik bo‘lib, ularning sabog‘i uchun Buxoro Xalq Respublikasidan mablag‘ ajratilgan. Fayzulla Xo‘jayev va Fitratning bu tashabbusni qo‘lga olishlaridan ham ularning asl pirovard maqsadi– yagona xalq, yagona davlat tuzish ekanini isbotlaydi. Bo‘lmasa huquqan nega bir davlatning talabasi uchun ikkinchi davlat pul ajratsin. Ular mahalliy kadrlar kelajakda yaxlit bir milliy davlatga xizmat qilishini oldindan rejalashtirgan deya taxmin qilamiz.

So‘zboshi o‘rnida yozilgan “Tilagimiz” maqolasida Sayyid Alixo‘ja “Uzoqlarga buyuk umidlar bilan yuborgan Turkistonimizga bu harakatimiz ko‘kragimizda yong‘on xizmat tuyg‘ularini ko‘rsatar umididamiz.

...Deymiz, bizning qo‘limizdan kelgani hozir shu bo‘ldi. Yararlik bo‘lmasa da, o‘z bolalaringizniki” deb yozadi.

Jurnal materiallarini mazmunan va janriy jihatdan guruhlashtirsak quyidagicha ko‘rinish hosil bo‘ladi:

1. Publisistik maqolalar: “Aql va sezgu yoki miya va yurak”, “Texnika va biz”, “Osiyoning oq o‘g‘li”
2. Ma‘rifiy maqola: “Adabiyotda idealizm va realizm”,
3. Ocherk: “Yozuvingga javob”, “Cho‘lpon Cho‘lpondir”
4. Qatra yoki luqma: “Amriqoda kishi qoni”, “Dunyo urushi qanchaga tushdi?”
5. 8 ta she‘r

Jurnaldan o‘rin olgan ushbu asarlarni janriy va mahorat nuqtai nazaridan haddi a‘losida deyish juda qiyin. Ammo xorijda birinchi marta chiqarilgan bu jurnalning o‘ziga xosligi unda taraqqiy etgan Yevropa ta‘limi va rivojlanishini birinchi o‘ringa olib chiqish o‘rniga talabalarni ko‘proq ona yurt qayg‘usi tashvishga solganida ko‘rinadi. Sayyid Alixo‘ja qalamiga mansub “Osiyoning oq o‘g‘li” maqolasida bir tatar millatiga mansub publisist tomonidan xorijga talabalarning yuborilishini qoralagan maqolaga munosabat bildirilgan. Muallif yangi sho‘rolar hukumatiga yon bosgan bo‘lib, kommunistik g‘oya asli Yevropada paydo bo‘lgani, Lenin ham g‘oyasini Yevropadan olgani, kapitalizmning ham Vatani shu yer ekanini yozadi. Asli niyat xorijda yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishga halaqit qiladigan bu maqola yozuvchisini chor ma‘murlariga yaqinlashtirib Sho‘rolarga qarshi qo‘ymoq bilan berkitmoqchi bo‘ladi. Keltirilgan argumentlar biroz o‘rinsizroqdek, biroq yoshlarda ta‘limni bitirgach

³ Irzayev B. O‘zbek yoshlari va xorijiy ta‘lim. Toshkent, Akadennashr, 2018.–208 b.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Turkistonga kelib yurtni taraqqiy ettirish maqsadi bor edi va bu sharaflı orzu yo‘lidagi har qanday qiyinchilik va to‘siqlarni yengib o‘tishga o‘zlarida kuch va g‘ayrat topa olishgan.

Jurnalning oxirida ikkita qatraga ko‘zimiz tushdi. “Amriqoda kishi qoni” va “Dunyo urushi qanchaga tushdi?”. Germaniyada talabalar Amerikada chop etilgan nashrlarni o‘qishgan. Ulardan birida hasta kishilar uchun qon sotib olinishi haqidagi e‘lon bosilgan. “Ko‘mak” jurnali unga kichik munosabat sifatida “Turkistonda tekinga qon oldirg‘uvchi ham qon olguvchi sartaroshlar diqqatiga” deb luqma yozgan. Yoki birinchi Jahon urushining moddiy talafotlarini hisoblagan Amerika jurnalistining statistik ma‘lumotlariga “Bu dollarlar Rossiya Sho‘rolar Jumhuriyatida yashovchi 117 million chamasında xalqni 1921 yilda yashashlariga ketgan oqcha hisobi bilan, 111 yil 3 oy chaması ta‘min etar edi” deb fikr bildiradi.

Umuman, “O‘zbek yoshlari va xorijiy ta‘lim”, Sh.Turdiyevning “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitoblarini oq‘sangiz yoki qatag‘on qilingan ushbu yoshlar haqidagi hujjatli film⁴ni tamosha qilsangiz, barchasida talabalar xorijda o‘qishda moddiy jihatdan qattiq qiynalganlari aytiladi. Shunday bir sharoitda jurnal chiqarishni o‘ylaydigan ahvolda emas edilar. Ko‘mak jurnalidan keyin Turkistondan qochib Istanbulga joylashgan Usmonxo‘ja tarafidan chiqarilgan Yangi Turkiston (1927-1932) yoki Parijda Mustafó Cho‘qay tarafidan chiqarilgan Yosh Turkiston (1929-1939) nashrlari gazeta emas, balki jurnal sifatida chiqarilganining boisi ham moddiy ta‘minotining zaifligidan darak beradi. Jurnal davriyligi jihatidan kamroq bo‘lgani uchun tanlangan deb taxmin qilamiz. Ham muharrirlar jamoasi, ham siyosiy tahlika, ham moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan bu jadid yoshlari o‘z so‘zlarini bosma nashrlar orqali baralla aytishni istadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Ko‘mak” jurnalini muhojir o‘zbeklar tarafidan xorijda chiqarilgan birinchi jurnal sifatida ko‘rish mumkin. 1923-yildan avval etnik bo‘lmagan o‘zbeklar tarafidan birorta matbuot nashri chet elda chiqarilgani haqida hanuz ma‘lumotga ega emasmiz. Jurnal Germaniyaning Berlin shahrida ko‘ngilli o‘zbek talabalari tarafidan davomiy ravishda chiqarilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, moddiy qiyinchiliklar tufayli bittagina nishona soni bilan to‘xtab qolgan. Jurnal mazmun-mundariyasi rang barang, ammo ularni O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘llari va unda yoshlarning orzu-umidlari chizig‘i birlashtirib turadi.

Foydalanilgan adabiyot:

⁴ <https://www.youtube.com/watch?v=6Ewd58Hh6DI>, Murojaat vaqti: 3.01.2024

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

1. Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
2. Irzayev B. Germaniyada ta'lim olgan Turkiston yoshlari.– Toshkent: Akademik Kitaplar, 2022.
3. Irzayev B. O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. Toshkent, Akademyashr, 2018.
4. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar.– Toshkent: Akademyashr, 2006.
5. Xolid A., O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. Toshkent: “Akademyashr”, 2022.